



XORIJIY TILNI O'QITISHDAGI DOLZARB METODIK, LINGVISTIK MASALALAR VA YONDASHUVLAR



MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMAN

16.04.2025



**O'zbekiston RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**“XORIJIY TILNI O'QITISHDAGI DOLZARB METODIK, LINGVISTIK
MASALALAR VA YONDASHUVLAR”**

**"CURRENT METHODOLOGICAL, LINGUISTIC ISSUES AND APPROACHES IN
FOREIGN LANGUAGE TEACHING"**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI**

**PROCEEDINGS
Of International scientific conference**

**16-aprel, 2025 йил
April 16, 2025**

**Samarqand - 2025
Samarkand – 2025**

**УЎК 4
КБК 81.2
3 - 27**

Тўпламда Самарқанд Давлат чет тиллар институти томонидан ўтказилган “Замонавий лингвистик тадқиқотлар: хорижий тажрибалар, истиқболли изланишлар ва тилларни ўқитишнинг инновацион усуллари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари жой олган.

Ушбу илмий-амалий конференция замонавий лингвистик тадқиқотларга бағишланган бўлиб, унда чет эл тажрибалари, истиқболли изланишлар ва тилларни ўқитишнинг

инновацион усуллари ҳақида илмий назариялар, лингвистика соҳасидаги долзарб тенденциялар, жумладан, когнитив, социомаданий ва рақамли технологиялар асосида тил ўрганиш усуллари ҳақидаги маърузалар жамланган. Келтирилган маърузаларда хориждаги муваффақиятли амалий тажрибалар ҳақида фикрлар билдирилиб, уларни турли таълим контекстларига мослаштириш имкониятлари баҳоланади. Муаллифлар анъанавий ўқитиш методикаларига инновацияларни жорий этиш билан боғлиқ қийинчилик ва имкониятларни ўрганиб, фанлараро ёндашувнинг аҳамиятини таъкидлайди.

Тўплам лингвистлар, тил ўқитувчилари, методистлар ва глобаллашув ва рақамли трансформация шароитида тил таълимининг келажаги билан қизиқаётанлар тадқиқотчилар ҳамда магистрантларга мўлжалланган.

Tahrir hay'ati

dots. B.A.Xolikov (rais),
prof. O.M.G'aybullayev (rais o'rinsbosari),
prof. G.K. Mirsanov,
prof. R.D.Jurakulov,
dots. Kiyasova Kaliya Kuralbayevna,
dots. Q.A.Egamnazarov,
M.N. Esirgapov (mas'ul muharrir),
D.A. Alibekova (mas'ul kotib, muharrir),
K.S. Maxmudova,
F.U. Xolbayev, (muharrir)
X.A. Xolboyev,
U.N. Taylakov,
D.U.Islomov

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarining haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

RO'YXATDAN O'TISH, KO'RGAZMA JARAYONI	
OCHILISH MAROSIMI, KIRISH SO'ZLARI	
(10:00- 10:15)	
MODERATOR	
Xolbayev Farrux Uskanovich	
Payariq xorijiy tillar fakulteti Umumiy fanlar kafedrası o'qituvchisi	
1	Xolikov Bahodir Alikulovich <i>Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, PhD, dotsent</i>
2	Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich <i>Filologiya fanlari doktori, professor, Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrası</i>
ASOSIY MA'RUZALAR (10:15- 12:00)	
3	Ashurov Shahobiddin Saidovich <i>Filologiya fanlari doktori, professor, Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası</i>
4	Egamnazarov Qobil Abdunazarovich <i>Filologiya fanlari doktori, dotsent, Payariq xorijiy tillar fakulteti dekani</i>
5	Qarshibayeva Uljan Davirovna <i>Filologiya fanlari doktori, professor,</i>
6	Kiyassova Kaliya Kuralboyevna Dotsent m.a
7	Bilir Bayram Sharq tillari fakulteti, Yaqin sharq tillari kafedrası (Turkiya)
8	Ahmed Mahmoud Ahmed Muhammad Faculty of Oriental Languages, (Arab Republic of Egypt)
9	Bao Liyang- Samarqand davlat chet tillari instituti qoshidagi konfutsiy instituti o'qituvchisi PhD
10	Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich . Filologiya fanlari nomzodi professor. SamDChTI O'zbek tili, jurnalistika va computer jurnalistikasi kafedrası
11	Jurakulov Rustam Davronovich SamDChTI Professori

6. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. VI жилд. Булбулнома. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б.460.
7. Жамол Камол. Сайланма. Етти жилдлик. VII жилд. Шайхурраис. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2022. –Б.416.
8. Хасанов Ш. Истедоднинг рангин жилолари. Шарқ юлдузи. 2019 йил. 1-сон.
9. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent, Fan va texnologiyalar. 2009. – B.414.
10. Назарова Д. Жамол Камол шеърляти поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021. – Б. 166.
11. Qarshiyev K.A. Jamol Kamol she’riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022. – B. 147.
12. Akramova S.R. Jamol Kamol she’riyatida tojikcha-o‘zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023. – B. 148.
13. Alibekova, D., Xolbayev, F., Shermatova, D., & Ikromova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF THE FICTION BOOKS IN READING AND WRITING SKILLS. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(23), 36-40.
14. Mirsanov, G. A. (2023). Expressing Aspectual Semantics in Discourse. Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics, 1(5), 68-73.
15. Irgashov, G. (2023). GRUNDSÄTZE DER EFFEKTIVEN ENTWICKLUNG INTERKULTURELLER KOMPETENZEN IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. Academic research in educational sciences, 4(10), 60-64.

jihatlarini, qiyoslanayotgan tillarda maqol-paremiologik birlik va matal-paremiologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan va misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: maqol, matal, paremiologik birlik, koʻchma maʼno, alliteratsiya.

Maqol deyilganda odatda, bir maromda uyushgan shakldagi, ichki yoki tashqi qofiyaga ega boʻlgan nasihatimiz mazmunli, chuqur maʼnoli iboralar, hikmatli soʻzlar tushuniladi [A.V.Kunin 1986, b. 300]. Bular qisqa, loʻnda aytilgan xalq hikmatli soʻzlaridir (gaplaridir). Ularning ifoda plani qisman koʻchma, qisman oʻz maʼnosida yoki faqat koʻchma maʼnoda boʻladi [Yaxshiyev 2012, b. 240]. Grammatik nuqtai nazardan ular tugallangan gaplar hisoblanadi. Masalan: “Bukrini goʻr toʻgʻrilaydi” (OʻXM, 193) paremiologik birligida faqat obrazli koʻchma maʼno boʻlsa, “Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar” (OʻXM, 34) maqolida esa birinchi qismi koʻchma maʼnoda, maqolning ikkinchi qismi esa oʻz maʼnosida kelmoqda.

Umuman olganda maqol tipidagi PBlar uchun obrazlilik, hikmatli gap tugalligi, pand-nasihatlilik, maxsus bir maromli ohangdorlik (musiqiylik) va fonetik bezash (ritm, tovushlar takrori, sheʼriy vazn, troplar, parallel qurilish va boshqalar) xosdir. Shuning bilan nutqda maqol tipidagi PBlar mustaqil hukm boʻlib keladi. Masalan: “Ein leerer Schrank bringt Streit und Zank” (SPWL, 517), “Eigener Herd ist Goldes wert” (SPWL, 261). Maqol paremiologik birlikning asosiy koʻrsatkichi bu uning koʻchma maʼnoni aks ettirishidir. Masalan: nemis va oʻzbek tillaridagi maqol PBlarni qiyoslang: “Der Fisch fängt am Kopf an zu stinken” (SPWL, 324), “An den Ohren erkennt man den Esel” (SPWL, 437), “Auch die Wände haben Ohren” (SPWL, 437); “Gʻunajin koʻz suzmasa, Buqacha ip uzmaydi” (OʻXM, 396), “Qargʻa qargʻaning koʻzini choʻqimas” (OʻXM, 389), “Otasi achchiq olma yesa, Oʻgʻilning tishi qamashar” (OʻXM, 384).

Matal maqol turiga kirmagan nutqiy frazeologik birlikdir. Matallarning koʻpchiligi baholash xususiyatiga ega boʻlgan iboralar sanaladi [Caфapов 1989, 6. 143]. Bunday xalq hikmatli soʻzlari grammatik jihatdan tugallangan gap boʻlsa, maʼno ifodalash planida bir-biridan farq qiladi. Masalan: “Der Gast ist wie ein Fisch, er bleibt nicht lange frisch” (SPWL, 176). – tarj. ‘Mehmon baliqqa oʻxshaydi, uzoq vaqt yangi kelgandek boʻlolmaydi’. Nemis xalqida mehmonning baliqqa oʻxshatilishi bir tomondan tabiiy

sharoitdan kelib chiqib, ikkinchi tomondan asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida e'tirof etilganligi bilan bog'lanadi. O'zbeklarda esa baliq iste'mol qilish keng tarqalmaganligi bois, mehmonga nisbatan qo'llanilmaydi va shu o'rinda o'zbek xalqida "Qo'noqning kuni uch, Uch kundan keyin ko'ch" maqoli yoki "Birinchii kun mehmon – oltin mehmon, ikkinchi kun – kumush, uchunchi kun – mis, uchdan o'tsa - pes" (O'XM, 205) PBlar yuqorida keltirilgan nemis tili PBga muqobil sanaladi. Har ikkala keltirilgan o'zbekcha muqobillarda mehmonning hurmati, izzati uch kun ekanligi uqtiriladi, bunda lingvomadaniy jihat ham o'z-o'zidan inobatga olingandir, ya'ni nemislarda 'baliq' komponentida milliylik bo'lsa, o'zbeklarda 'uch' soni muhim rol o'ynagan, chunki 'uch', 'yetti', 'yigirma', 'qirq' sonlari bilan bog'liq urf-odatlar, irim-sirimlar lingvomadaniylik belgilaridir. Nemis tilida "Ungeladene Gäste sind die liebsten" (SPWL, 56) paremiologik birligi o'zbek tilida "O'zi kelgan mehmon – atoyi xudo, Chaqirib kelgan mehmon – gadoyi xudo" (O'XM, 208) muqobiliga ega bo'lib, har ikkala xalqda ham mehmonni xush ko'rishi, aziz hisoblashi, mehmondo'stlik qadriyatlarining mavjudligidan dalolat berib turibdi.

Maqol PBlar ko'pincha qofiyalangan, radifli qofiyalar bilan ta'minlangan bo'ladi, ba'zan esa tovushlar uyg'unligi (alliteratsiya) asosida ohanglashtiriladi. Bunday lisoniy usullar ularning yodda saqlanishini osonlashtiradi. Masalan: "Heiraten ins Hast bringt lange Last" (SPWL, 257) PBning muqobili "Shoshgan qiz erga yolchimas" (O'XM, 225) bo'lib, 'Shoshilib turmush qurish, keltirib chiqarar ko'p tashvish' tarzida tarjima qilinadi. Ko'rib o'tgan misollarimizda qofiyadoshlik har ikki tilda ham maqol yaratilishida muhim lisoniy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Matal PBlarning umumiy (jihatlari) xususiyatlari quyidagi ko'rsatkichlarda ko'rinadi: iboraning qochirim yo'li bilan, ya'ni allegorik aytilishi, sintaktik qurilish shaklining qisqaligi va obrazlilik (badiiylik). Bu turdagi PBlar biror-bir hayotiy holatning ko'rinishini ifodalaydi. Biroq unda maqol tipidagi PBlardan to'g'ridan-to'g'ri o'git, nasihat, o'rgatish mazmuni yo'qligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham bu hol uning sintaktik tugallanmaganligida payqaladi. Har doim matal hukmning bir qismi bo'lib, u faqat kontekstda o'zining aniq ma'nosi bilan shakllanadi [Яхшиев 2020, б. 192]. Masalan: "Onali yetim – gul yetim, otali yetim sho'r yetim" (O'XM, 336) yoki "Odam

qadrini odam bilar” (O‘XM, 88), “Ishlamagan - tishlamas” yoki “Ishlagan tishlar, Ishlamagan kishnar” (O‘XM, 36). Matal PBlarning asosiy belgisi ularning o‘z ma’nosida qo‘llanilishidir.

Shunday qilib nemis va o‘zbek tillarda maqol va matal PBlar o‘rtasida to‘rt turdagi semantik munosabatlar mavjudligi anglashiladi:

1. O‘zbek tilida to‘liq muqobili bo‘lgan nemischa maqollar: Masalan: “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi” (O‘XM, 389) – “Eine Krähe hackt der anderen die Augen nicht aus” (SPWL, 54); “It hurar, karvon o‘tar” (O‘XM, 82) – “Die Hunde bellen, aber die Karavane zieht weiter” (SPWL, 71).

2. Ma’no jihatdan o‘xshash, lekin mazmunan har xil, boshqa-boshqa komponentlar bilan ifodalangan. Masalan: “Ein gelehrter Bär kommt im Walde nicht weit” (SPWL, 61) – “Qo‘lga o‘rgangan qush qirda adashar” (O‘XM, 354); “Not lehrt den Bären tanzen” (SPWL, 61) – “Tayoq ayiqni ham mulla qilar” (O‘XM, 195).

3. O‘zbek tilida o‘zbekcha milliy madaniyatga xos bo‘lgan PBlar. Masalan: “Qo‘lidan ish kelmagan ma’raka buzar” (O‘XM, 27), “Dangasaning saratonda qo‘li sovgotar” (O‘XM, 31).

4. Nemischa milliy madaniyatga xos bo‘lgan tipik PBlar. Masalan: “Der Wald hat Ohren, das Feld hat Augen” (SPWL, 54), “Auch weißer Wein macht eine rote Nase” (SPWL, 420).

Tilshunos olimlar dunyo xalqlari orasida ko‘plab maqol PBlar ma’nolarining bir-biriga mos kelishi sabablarini aniq bilmasdan, mavhum holda izohlaydilar. Ba’zilari paremiologik birliklarning bunday o‘xshashligini xalqlarning etnik va tillarning ma’lum bir oilaga mansubligida deb bilsalar, boshqalari iqtisodiy va madaniy aloqalar tufayli bir-birlaridan nutq birligi sifatida o‘zlashtirilgan deb hisoblashadi, yana boshqalari tarixiy tajribaning o‘xshashligi va ijtimoiy rivojlanishning bir xil bosqichlarida mafkuraning bir xilligi bilan bog‘liq degan fikrni olg‘a suradilar. Bizning fikrimizcha esa keyingi ikki omil paremiologik birliklar o‘xshashligining asosiy sababidir. Albatta, qardosh bo‘lgan tillarda noqardosh bo‘lgan tillarga nisbatan nafaqat leksik birliklarda, balki frazeologik birliklarda ham, paremiologik birliklarda ham o‘xshashliklar ko‘proqdir. Bundan tashqari asrlar davomida qo‘shnichilikda yashab kelayotgan xalqlar ham noqardosh xalqlar

bo‘lishiga qaramasdan bir-birlaridan til va nutq birliklarini o‘zlashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq, 2019. - 512 b.
2. Beyer Horst und Annelies. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. - 2., unveränderte Auflage. - Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. - 712 S.
3. Yaxshiyev A.A. Dialogue speech in linguo-didactic interpretation // Filologiya masalalari. - Baku, 2012, № 4. - P. 236-243.
4. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. - М.: ВШ, 1986. - 336 с.
5. Сафаров Ш. О дискурсивно-прагматической природе директивных речевых актов // Текст: структура и анализ. – М., 1989. - С. 142-146.
6. Яхшиев А.А. Немис тили фразеологик бирликлари гапда эга мақомида // Chinese Poetic Thought and Korean Subject Variation. International Scientific. Wuhan Institute of Technology. – China, 2020. – Б. 191-194.

125-

O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA O‘XSHATISHLAR

M.B.Mustafaqulova, Sharof Rashidov

nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Badiiy asarda o‘xshatishlar badiiy asar tilining tasviriyligi , obrazliligini kuchaytiruvchi , unga jozibadorligi va poetik ifodaviylik beruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari u yozuvchining dunyoqarashi va badiiy mahoratining qay darajada yuqori ekanligi ham ko‘rsatib beruvchi unsurdir. Maqolada xalqimizning sevimli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning hikoyalaridagi o‘xshatishlar , ularning tarkibi va turlari haqida so‘z yuritiladi.